

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI

**D.O‘.QARSHIYEVA**

**DARSLARNI “KVEST”  
TEXNOLOGIYASI ASOSIDA  
LOYIHALASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

*Uslubiy qo‘llanma*

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2022

**UO'K 37.01(072)**

**BBK 74.202.5**

**Q 22**

**D.O'.Qarshiyeva.** Darslarni “Kvest” texnologiyasi asosida loyihalashni takomillashtirish.Uslubiy qo‘llanma – Toshkent, 2022-yil, 52 bet.

***Mas’ul muharrir:***

**I.Aminov –** SamDU dotsenti.

***Taqrizchilar:***

**M.Fayziyev –** O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti dotsenti;

**B.Usmonov –** Samarqand viloyati XTXQTMOHM dotsenti.

Uslubiy qo‘llanmada ta’limda nisbatan yangi bo‘lgan ta’lim texnologiya “Kvest” texnologiyasi haqida ma’lumotlar berilgan

Uslubiy qo‘llanma barcha toifadagi malaka oshirish o‘qituvchilari, shuningdek, talabalar va qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

**ISBN 978-9943-7904-1-4**

*Uslubiy qo‘llanma Samarqand viloyati XTXQTMOHM Ilmiy metodik kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

© D.O'.Qarshiyeva  
© “Qamar media” nashriyoti

## KIRISH



Dunyo miqyosida kasbiy malaka oshirish tizimini globallashtirish sharoitlarga moslashtirish hamda maktab o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkiliy-metodik asoslarini tadqiq etishda tizimli yondashuvli metodlar va zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash asosida pedagog kadrlarning mustaqil o'zini o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag'batlantirish hamda ularning "Kvest" texnologiyasi asosida darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishning optimal yondashuvlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalar ko'lamini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda xalq ta'limi xodimlarining ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining darslarini loyihalash kompetentligini rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkoniyatlarini oshirmoqda. O'z navbatida, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning "Kvest" texnologiyasi asosida darslarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini tadqiq etish zaruriyati paydo bo'lmoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida «pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish»[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining "Kvest" texnologiyasi asosida darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni algoritmi didaktik o'quv vositalari asosida takomillashtirish, loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish

kvest texnologiyasi asosida darslarni loyihalash mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-sonli «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-sonli Farmoni, 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4963 qarorlari [2], [3], [4], [5] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu kvest darslarini loyihalash mavzusidagi uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

# I. MAKTAB O‘QITUVCHILARINING DARSLARINI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

## 1.1. DARSLARNI LOYIHALASH



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli [2], 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-sonli farmonlari [3] va 2021 yil 25 yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-sonli qarori [4] da maktab o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini malaka oshirish tizimida rivojlantirish vazifasi sifatida belgilab qo‘yilgan.

Maktab o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi - bu o‘qituvchining o‘z kasbiga oid kerakli bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lishi asosida ta’lim va tarbiya jarayonida turli pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatini beradigan, faoliyat qobiliyati va tayyorligida namoyon bo‘ladigan shaxsning sifatidir.

A.Sheltenning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyani – bu maxsus (maxsus bilimga ega), ijtimoiy (shaxs haqida ijobiy tasavvur, boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati, sinfda o‘zini tuta olish qobiliyati), uslubiy (qobiliyat mustaqil ravishda murakkab muammolarni hal qilish yo‘llarini topish, o‘z-o‘zini

tarbiyalash, o'zini rivojlantirish) jihatda yuqori natijalarga erishishdir [6].

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tuzilishida darslarni loyihalash kompetensiyasi asosiylaridan biri hisoblanadi. Darslarni loyihalashda o'qituvchining oldida katta mas'uliyat turadi hamda ulardan yuqori kasbiy kompetentlik talab etiladi.

O'qituvchining darslarni loyihalash kompetensiyasi bu- sistemali va mantiqiy tugallangan dars ishlanmasi va o'quv materialli asosida samarali ta'lim texnologiyalari qo'llash orqali dars jarayonini tizimli tashkil eta olish qobiliyatidir. Baymurzina G. X. fikriga ko'ra, o'qituvchining darslarni loyihalash kompetensiyasi darsda o'quvchilar va o'qituvchilarning kelgusidagi faoliyatining asosiy tafsilotlarini dastlabki ishlab chiqish, uning natijalarini oldindan prognoz qila olish qobiliyatidir [6].

Shunday qilib, o'qituvchining darslarni loyihalash kompetensiyasi -dars ishlanmasi asosida ta'lim texnologiyalarini to'g'ri va o'rinli foydalangan holda dars bosqichlari to'g'ri tizimli tashkil eta olish qobiliyatidir.

Shu bois, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining darslarini loyihalash kompetentligini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish, ularning o'z kasbiga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish davr talabiga aylandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining darslarini loyihalashga oid kompetentligini takomillashtirish jiddiy zaruratga aylangan [7].

Bugungi kunda pedagogikada ta'lim oluvchini ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish usullari ishlab chiqilgan. Bular muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, shaxsga yo'naltirilgan, rolli o'yinlar va boshqalar. Ammo ularni ta'lim tizimida, jumladan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy bilim va mahoratni, ishga ijodiy yondashuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilish sabab bo'lmoqda, degan xulosaga keldik. Chunki har bir

o‘tiladigan mashg‘ulot ishlanmasi o‘ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir [8].

Shu bilan birga quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- o‘qituvchilari tomonidan darslarini samarali tashkil etish, mustaqil o‘z ustilarida ishlashlari uchun global tarmoqdan foydalanish madaniyatini shakllantirish;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan mustaqil foydalana olish malakalarini oshirish;

- o‘qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan darslarni turli xil ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishga oid kompetentligini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda hamda malaka oshirish jarayonida maktab o‘qituvchilarning loyihalashga oid kasbiy kompetentligini rivojlantirishda “Kvest” va “Veb-kvest” texnologiyasidan foydalanish bosqichlarini, algoritmini va qo‘llash usullarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## 1.2. «KVEST» TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI



Bugungi kunda mamlakatimizning pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish uchun zarur metodik shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni darslarini loyihalashga oid kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Malaka oshirish jarayonida maktab o‘qituvchilarining darslarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta‘lim texnologiyalarini, xususan «Kvest» texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu texnologiyadan foydalanish uchun dastlab unga oid tushuncha, imkoniyatlari, xususiyatlari, qo‘llash bosqichlari, algoritmi bo‘yicha tadqiqotchilarning fikrlarini hamda ularni tadqiqotlarini tahlil etish lozim.

Dastlab “Kvest” qadimgi sivilizatsiyalar davrida paydo bo‘lgan va insoniyatni butun tarixi davomida unga hamroh bo‘lgan, deb taxmin qilishimiz mumkin. Chunki “Kvest” – bu jumboqli texnologiya hisoblanadi. Insoniyat esa har doim jumboqlarni yechishlari uchun turli xil izlanishlarni olib borgan. Ular turli vaqtlarda yashiringan xazinalarni va tabiiy boyliklarni topishga oid izlanishlar olib borganlar.

Ma’lum vaqtgacha “Kvest” va pedagogika parallel ravishda mavjud bo‘lib, ular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan. Bu boradagi inqilob kompyuter texnologiyalari tufayli sodir bo‘ldi. “Kvest” texnologiyasi pedagogikaga 20-asrning oxirida, ya’ni kompyuter o‘yinlari dunyosi rivojlangandan so‘ng kirib keldi. O‘tgan asrning 90-yillarida “Sierra” kompyuter kompaniyasi King’s Quest, Space Quest, Police Quest kabi o‘yinlarini yaratdi [8]. Ushbu ishlab chiqilgan ba’zi kompyuter o‘yinlari “Kvest” nomi bilan atala boshlandi. Bu borada E.A.Igumnovanning fikriga ko‘ra, “Kvest” – ma’lum bir maqsad uchun kerakli ma’lumotlarni qidirishdir. Uning ta’kidlashicha “Kvest” tushnchasi kompyuter o‘yinlari dunyosi rivojlanishidan paydo bo‘lgan [9].

Dastlab “Kvest” atamasi ta’lim texnologiyasi sifatida 1995 yil San-Diego Universitetining (AQSH) ta’lim texnologiyalari professori Berni Dodj tomonidan taklif etgan [9].

Bundan so‘ng, “Kvest” va “Veb-kvest” texnologiyasining imkoniyatlari, ushbu texnologiyani ta’lim jarayonida qo‘llash algoritmi, bosqichlari, usulariga oid tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-izlanishlar olib borgan hamda ular tomonidan turlicha ta’riflar keltirilgan, xususan E.F.Mostkovaning fikriga ko‘ra, “Kvest” – bu inglizcha qidirish, jumboqli o‘yin degan ma’noni anglatib, virtual yoki real maydonda joylashtirilgan har xil turdagi onlayn va offlayn o‘yinlardir. Bu o‘yinning o‘ziga xos shakli ishtirokchilarga berilgan vazifalar echimini topishni talab qiladigan intellektual faoliyatdir. Shuning uchun “Kvest” texnologiyasi maktab o‘quvchilari, talabachilar uchun qiziqarli o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi [10].



“Kvest” texnologiyasini intellektual o‘yin turi deb, ta’riflash mumkin, uning jarayoni maxsus tayyorlangan xonada bo‘lib o‘tadi. Bunda berilgan vazifalarni hal qilish orqali fanni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun, “Kvest” texnologiyasi maktab o‘quvchilari, talabalar, yoshlar uchun qiziqarli ta’lim texnologisi hisoblanadi.

Kvesti texnologiyasi – bu o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning muammoli shakli, o‘qitishning muammoli, tadqiqot, o‘yin va axborot-kommunikatsiya usullarini integratsiyalash, maqsadli qidirishni birlashtirish, sarguzashtlar va (yoki) bosqichma-bosqich topshiriqlarni bajarishga asoslangan hamda o‘quvchi-talabaning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va rivojlantirishga imkon beradi [11]. SHuningdek, “Kvest” texnologiyasi muammoli vaziyat bo‘lib, uni hal etish jarayonida ta’lim oluvchining yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar [12].

Bugungi kunga qadar “Kvest” texnologiyalarining qo‘llashni har xil turlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni I.N.Sokol quyidagicha klassifikatsiyalaydi [13]:

- o‘tkazish shakli bo‘yicha:

a) kompyuter o‘yinli “Kvest”lar. Ya’ni, kompyuter o‘yinlari yordamida ta’lim berish.

b) “Veb-kvest”lar. Veb-resurslarni qidirish va tahlil qilish (veb-sayt, axborot-ta’lim muhitlari, virtual lug‘at va boshqalar);

c) QR “Kvest”lari (QR kodlaridan foydalanish);

d) media-“Kvest”lar (Media-resurslarni izlash va tahlil qilish).

Ushbu turdagi “Kvest”larga foto va video resurslar kiradi;

e) tabiatdagi “Kvest”lar (ko‘chalar, bog‘lar va boshqalar);

- o‘tkazish uslubi bo‘yicha:

a) aniq vaqtda ta’lim olish. b) amalga oshirish davriga ko‘ra “Kvest”lar. Bularga qisqa muddatli kvestlar (bilimlarni mustahkamlash va ularni tizimlashtirish);

b) uzoq muddatli “Kvest”lar. Bularga bilimlarni mustahkamlash va o‘zgartirishga mo‘ljallangan uzoq muddatli, ya’ni bir semestr yoki o‘quv yili davomida;

- ish shakli bo'yicha: guruh; individual;

- mavzu bo'yicha: mono "Kvest";

- fanlararo "Kvest";

- tuzilishiga ko'ra: chiziqli; tarmoqli;

- **axborot-ta'lim muhiti bo'yicha:**

a) an'anaviy ta'lim muhiti;

b) virtual ta'lim muhiti;

s) texnik platformada: virtual kundaliklar va jurnallar; saytlar; forumlar;

d) google – guruhlar, Wiki – sahifalar, ijtimoiy tarmoqlar;

- **talabalarning dominant faoliyatiga oid:**

a) tadqiqot ishi bo'yicha izlanishlari;

b) axborotlarni izlash;

s) ijodiy izlanish;

d) qidiruv vazifasi;

e) o'yin vazifasi.

- **aloqa xususiyati bo'yicha:**

a) bitta sinf yoki maktab o'quvchilari;

b) bitta tuman o'quvchilari.

Ilmiy-uslubiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, uzluksiz ta'lim jarayonida "Veb-kvest"lar (virtual - Internetda) va "Kvest" ("jonli" "Kvest"lar - tabiatda, ko'pincha virtual qidiruvni real hayotdagi faoliyat bilan birlashtiradigan sinfda, muzeyda va hokazo)lardan foydalanish samarali natijalarga erishish mumkinligiga amin bo'ldik.

Tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy ishlaridagi fikrlarini tahliliga ko'ra, "Kvest" texnologiyasini quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Ta'lim oluvchining aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinli o'qitish texnologiyasidir;

2. O'yin asosida ta'lim olishga qaratilgan ko'p tarmoqli texnologiyadir.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha ta'riflarni hisobga olgan holda, "Kvest" texnologiyasi birinchi navbatda ishtirokchi uchun syujet orqali aqliy muammolarni hal qilishni talab etadigan

sarguzashtli kompyuter o‘yini, ikkinchidan esa interaktiv ekskursiya sifatida qarash lozim.

“Kvest” texnologiyasini – bu rol o‘ynli texnologiyasi deb, talqin qilish mumkin, ushbu texnologiyani auditoriyada va auditoriyadan tashqari vaqtda hamda turli joylarda tashkil etish mumkin [14], [15].

Bu borada, ya’ni rolli o‘yin texnologiyasiga oid N.X.Avliyakov, N.N.Musayevaning fikriga ko‘ra – bu ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajaradigan aqliy holatlar, hatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi [16]. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jaev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonovlarning ta’kidlashicha rolli o‘yinlarni ishchanlik yoki ishbilarmonlik o‘yinlar, deb ta’riflaydi. Ya’ni rolli o‘yin – bu muammoli topshiriqlarni bir ko‘rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg‘ulotlarning asosiy belgisidir. Ularning fikriga ko‘ra, ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi vazifalarni namoyish qilishga keng imkoniyat yaratadi. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchilarning salohiyatiga mos holda vazifa berish juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo‘lmasligini ham talab etadi. O‘quv mashg‘uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko‘proq yaqinlashadi [17].

O.V.Gorbunovanning ta’kidlashicha, “Kvest” texnologiyasi – bu rol o‘yin elementlari bilan muammoli vazifalar majmuini o‘z ichiga olgan, uni amalga oshirish uchun har qanday manbalar va birinchi navbatda Internet-resurslar talab qilinadigan pedagogik texnologiyadir. Uning fikricha fanga oid qo‘yiladigan muammoli savollarga javob topishda internet texnologiyalaridan foydalanishga yo‘naltirish lozim [18].

Demak, ta’lim “Kvesti” – bu loyiha uslubi g‘oyalarini, jamoaviy ish va AKTni o‘rganish hamda ta’limiy o‘yinlarni qo‘llash g‘oyalarini integratsiyalashgan yaxlit texnologiyadir. Asosiy muammoli va bir qator yordamchi topshiriqlarni sarguzashtlar bilan yoki ma’lum bir syujetga ko‘ra o‘ynashda maqsadli qidirishni ta’minlaydi. Shu bois,

“Veb-kvest”ni “Kvest” texnologiyasining bir turi sifatida e’tirof etish mumkin.

“Kvest” texnologiyasi va pedagogikadagi an’anaviy o‘yinlarning farqi muammoli xarakterdagi vazifalar va Internetda ma’lumot izlashda, “Veb-kvest”lar uchun esa – ochiq axborot maydoniga sho‘ng‘ishdir (Internetdagi “Kvest” natijalarining taqdimoti, ya’ni veb-saytlarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda, maxsus kompyuter dasturlaridan foydalangan holda). Bu ta’lim texnologiyasining qo‘llanilishi zamonaviy jamiyatni ijtimoiy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanishini yana bir bor ta’kidlaydi.

Shunday qilib, “Kvest” texnologiyasi, har qanday pedagogik texnologiya singari, tarkibiy elementlar va ularning mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan ifodalanadigan o‘zgarmas qismga ega. O‘zgaruvchanlik afsonani, syujetni va boshqalarni rivojlantiradigan ta’lim beruvchining faoliyatida amalga oshiriladi. Bunda pedagogik mahorat, ta’lim oluvchining o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim tashkilotining imkoniyatlarini hisobga olish talab etiladi.

### 1.3. KVEST TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK TAMOYILLARI



Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari oldida o‘qitiladigan o‘quv fanlarini mavzulari bo‘yicha o‘quvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga qaratilgan dars ishlanmalarni loyihalash muammosi mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Uning echimi o‘qituvchidan ilmiy va uslubiy fikrlashni, o‘quv predmeti mazmunini loyihalashtirish qobiliyatini, o‘z mutaxassisligiga oid malakalarini oshirishni, ya’ni yuqori darajadagi uslubiy kompetensiyaning namoyon bo‘lishini talab qiladi. Buni esa “Kvest” texnologiyasidan foydalanib, samarali natijalarga erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchilarning “Kvest” texnologiyasi yordamida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish dolzarb

muammolardan biri hisoblanadi, chunki umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining shartlari doimiy ravishda o‘zgarib turadi: mazmuni, o‘qitish maqsadlari, o‘quv va uslubiy to‘plamlarning tarkibi. Bu esa o‘qituvchidan didaktik vaziyat va mashg‘ulotlarning mazmuni, ma’lum bir maktab va sinfning maqsadlari, o‘quvchilar tarkibiga mos ravishda interfaol texnologiyalar, jumladan “Kvest” texnologiyasi asosida olib boriladigan mashg‘ulotni individual ravishda loyihalashni talab qilinadi.

Shuningdek, mashg‘ulotlarni “Kvest” texnologiyasi yordamida loyihalashda tayaniladigan tamoyillar hamda foydalaniladigan didaktik elektron ta’lim resurslari keltirilgan. Ushbu “Kvest” texnologiyasi yordamida darslarni loyihalashda tayaniladigan didaktik tamoyillarning mazmuni quyida keltirilgan:

➤ **Uzluksiz tamoyili.** Ushbu prinsip maktab o‘qituvchilarining o‘z kasbini o‘zluksiz ravishda oshirib va rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Bunda o‘z kasbiga oid yangiliklarni va pedagogik faoliyatida turli o‘qitish texnologiyalarning joriy etishni mazmuni, bosqichlarini, algoritmi va usullarini uzluksiz takomillashtirishni anglatadi.

➤ **Ilmiylik tamoyili.** Ushbu prinsip maktab o‘qituvchilarining “Kvest” texnologiyasi yordamida mashg‘ulotlarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda ilmiy manbalarga tayanish lozimligini nazarda tutadi.

➤ **Yaxlitlik tamoyili.** Ushbu prinsip maktab o‘qituvchilarining malaka oshirish vaqtida va undan so‘ng darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni yaxlit tizimini ishlab chiqishni hamda ularni joriy etishni anglatadi.

➤ **Faoliyati tamoyili.** Ushbu prinsip maktab o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida o‘z kasbiga va olib borayotgan mashulotlarni o‘tkazishga oid kompetentligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Buni esa “Kvest” va “Veb-kvest” texnologiyasi yordamida mashg‘ulotlarni loyihalash mazmunini va shakllarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda maktab o‘qituvchilari loihalashga oid umumiy madaniy va faoliyat qobiliyatlarini muvaffaqiyatli shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi

➤ **Psixologik tamoyili.** Ushbu prinsp maktab o‘qituvchilarining “Kvest” texnologiyasi yordamida mashg‘ulotlarni loyihalashda asosida o‘quv jarayoniga tadbiiq etishda, o‘quvchilar uchun keltirib chiqaradigan barcha salbiy omillarni bartaraf etishni, pedagogika g‘oyalarini amalga oshirish dialog shakllarini rivojlantirishdan iborat.

➤ **Ko‘p variantlilik tamoyili.** Ushbu prinsp maktab o‘qituvchilarning tizimli ravishda loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun variantlar va tanlangan vaziyatlarda etarli qaror qabul qilishga yo‘naltirishdan iborat.


➤ **Ijodkorlik tamoyili.** Ushbu prinsp maktab o‘qituvchilarning “Kvest” texnologiyasi yordamida loyihalashga oid ijodkorlikka maksimal darajada yo‘naltirishni, ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyat tajribalarini egallashini anglatadi.

Ushbu keltirilgan tamoyillar yordamida o‘quv kvestlarini loyihalashda, A.V.Xutorskiy tomonidan quyidagicha fikri diqqatga sazovar hisoblanadi: “Insonning o‘z kasbiga nisbatan motivatsiyasini oshishi, malakasi rivojlanishi va dunyodagi yangiliklardan xabardor bo‘lishga oid imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun “Kvest” texnologiyasi yordamida mashg‘ulotlarni loyihalashda ta’lim oluvchining qiziqishlari, muammolari, ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lishi muhimdir.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida darslarni “Kvest” texnologiyasi yordamida maktab o‘qituvchilarining loyihalashga o‘rgatishda elektron ta’lim resurslar (taqdimotli dasturlar, o‘rgatuvchi dasturlar, uch o‘lchovli o‘quv vositalar. video ma’ruzalar, virtual ta’lim texnologiyalar, diagnostik pedagogik dasturiy vositalar) samrali vosita hisoblanadi. Bunda ushbu o‘quv vositalar o‘quv ma’lumotlarining manbai bo‘lib xizmat qiladi hamda ta’lim oluvchilarning bilim faoliyatini boshqaradi, o‘quv natijalarini nazorat qiladi, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshiradi, ijodkorligini rivojlantiradi, bilimga qiziqishin va o‘quv jarayonining ijobiy motivlarini oshiradi. SHu bilan birga malaka oshirish kursi tinglovchilarining malakasini oshirish uchun individual yondashuvni takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

## II. “KVEST” DIDAKTIK TA’LIM TEXNOLOGIYASI SIFATIDA

### 2.1. KVEST TEXNOLOGIYASI



Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchilari oldida oʻqitiladigan oʻquv fanlarini mavzulari boʻyicha oʻquvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga qaratilgan dars ishlanmalarni loyihalash muammosi mavjud boʻlib, ularni bartaraf etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Uning echimi oʻqituvchidan ilmiy va uslubiy fikrlashni, oʻquv predmeti mazmunini loyihalashtirish qobiliyatini, oʻz mutaxassisligiga oid malakalarini oshirishni, yaʼni yuqori darajadagi uslubiy kompetensiyaning namoyon boʻlishini talab qiladi. Buni esa “Kvest” texnologiyasidan foydalanib, samarali natijalarga erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda oʻqituvchilarning “Kvest” texnologiyasi yordamida loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchisining kasbiy faoliyatining shartlari doimiy ravishda oʻzgarib turadi: mazmuni, oʻqitish maqsadlari, oʻquv va uslubiy toʻplamlarning tarkibi. Bu esa oʻqituvchidan didaktik vaziyat va mashgʻulotlarning mazmuni, maʼlum bir maktab va sinfning maqsadlari, oʻquvchilar tarkibiga mos ravishda interfaol texnologiyalar, jumladan “Kvest” texnologiyasi asosida olib boriladigan mashgʻulotni individual ravishda loyihalashni talab qilinadi.

Shu bois, modelning texnologik qismida umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchilarining “Kvest” texnologiyasi yordamida darslarni loyihalashga oid kompetensiyasini rivojlantirishni aks ettiradi. Unda oʻqituvchilarning loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni

tarkibiy qismlari (yangilikni yaratishga intilish, pedagogik vazifalarni oqilona hal etish) tashkiliy shakllari (tadqiqotchilik, mustaqil izlanish, vaziyatlarni loyihalashtira olish, modelashtirish) va loyihalash bosqichlari (Qidirish, analitik, amaliy, taqdimotli, nazorat va tuzatish) hamda “Kvest” texnologiyasining turlar: **veb-kvest** (Global tarmoqdan foydalanish), **jonlikvest** (CHiziqli, xalqasimn, muammoli) keltirilgan. Ushbu o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivjilantirish bosqichi (Qidirish, analitik, amaliy, taqdimotli, nazorat va tuzatish)larining mazmuni quyidagi 2.1-jadvalda keltirilgan ( G.B.Golub tomonidan ishlab chiqilgan) [19].

2.1-jadval.

### Loyihalash bosqichlari

<b>Bosqichlari</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>Qidirish</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Loyihaning mavzusi aniqlash.</li> <li>2. Muammoni qidirish va tahlil qilish.</li> <li>3. Loyihaning maqsadini belgilash.</li> </ol>
<b>Analitik</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mavjud ma'lumotlarni tahlil etish.</li> <li>2. Axborot bo'shliqlarini qidirish.</li> <li>3. Axborot yig'ish va tahlil etish.</li> <li>4. Loyihaning maqsadiga erishishni samarali usulini topish (muqobil echimlarni tahlil qilish), faoliyat algoritmini qurish.</li> <li>5. Loyihani amalga oshirish rejasini tuzish: ishni bosqichma-bosqich rejalashtirish.</li> <li>6. Resurslarni tanlash.</li> </ol>
<b>Amaliy</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rejalashtirilgan texnologik operatsiyalarni bajarish.</li> <li>2. Muntazam sifat nazorati.</li> <li>3. Dizayn va texnologiyaga o'zgartirishlar kiritish (agar kerak bo'lsa).</li> </ol>
<b>Taqdimotli</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Taqdimot materiallarini tayyorlash.</li> <li>2. Loyiha taqdimoti.</li> </ol>




Ushbu 2.1-jadvalda keltirilgan bosqichlardan foydalangan holda “Kvest” asosida **uzluksiz** kasbiy rivojlantirish tizimida o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda foydalandik.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida **uzluksiz** kasbiy rivojlantirish tizimida o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda “Kvest” texnologiyasining quidagi turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi: veb-kvest (Global tarmoqdan foydalanish), **jonli-kvest** (Chiziqli, xalqasimn, muammoli) keltirilgan.

**Uzluksiz** kasbiy rivojlantirish tizimida o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda “Veb-kvest” texnologiyasidan foydalanish zamonaviy texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bunda qo‘yilgan muammoni echimini global tarmoq orqali echimini topishga oid malakasi shakllanadi. jonli “Kvest”lardan foydalanish esa qo‘yilgan muammoni jamo bo‘lib fikr almashish orqali echishga oid kompetentligini rivojlantiradi. Ushbu jonli “Kvest”dan foydalanishning quyidagi turlari mavjud:


- chiziqli;
- xalqasimn;
- muammoli.

“Kvest” texnologisining chiziqli turida o‘yin zanjirga qurilgan bitta vazifani bajargandan so‘ng, qatnashchilar yo‘nalishni oxiriga etkazgunga qadar topshiriqlarni birin-ketin bajarib boradi (2.2-rasmga qarang).



### **“Kvest” texnologisining chiziqli turida foydalanish tuzilmasi.**


“Kvest” texnologisining xalqa turi, chiziqli shakliga aynan o‘xshash, ammo aylana shaklida amalga oshiriladi. Bunda jamoalar boshlang‘ich nuqtalardan boshlaydilar va o‘yin oxirida shu nuqtaga qaytadilar (2.3-rasmga qarang).



2.3-rasm.

### **“Kvest” texnologisining xalqa turida foydalanish tuzilmasi.**

“Kvest” texnologisining muammoli turida barcha ishtirokchilarasosiy vazifani, masalani echimiga qaratilgan javoblarini o‘z fikrlarni umumlashtirib, jamlab, takliflarini tanlashadi (2.4-rasmga qarang).



2.4-rasm.

### **“Kvest” texnologisining muammoli turida foydalanish tuzilmasi.**

Keltirilgan modelni diagnostika bo‘limida o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni baholashda foydalaniladigan vositalar va darajalari keltirilgan. Bu bo‘limda o‘qituvchining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish darajasi testlar va amali loyihalar berish orqali baholanadi.

Ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ba’zi umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari, ish staji va toifasidan qat’i nazar, samarali pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan loyihalashga oid kompetentlikka ega emas. Ko‘pchilik o‘zlarining uslubiy va predmetli bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini sezilarli darajada yangilash uchun ob’ektiv ehtiyojni boshdan kechirmoqda.

Shu bois, malaka oshirishning zamonaviy o‘quv jarayoni umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining an’anaviy faoliyati o‘rtasidagi ziddiyat qayd etilgan. Bunda maktab o‘qituvchilarining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda “Kvest” texnologiyasi samarali vositasi sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun esa yuqorida qayd etilgan, ya’ni malaka oshirish jarayonida maktab o‘qituvchilarining “Kvest” texnologiyasi asosida loyihalash kompetentligini rivojlantirish modelidan foydalanishni tavsiya etamiz.

Shunday qilib, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelning didaktik imkoniyatlarini aniqlagan holda, xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu model umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarning loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi, degan farazni ilgari suramiz.

“**Kvest**” texnologiyasini joriy etish va sinovdan o‘tkazish tajribasi ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularni umumiy o‘rta ta’lim maktab fanlarini o‘qitishga kiritish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [21]:

- axborot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- bilish jarayoniga ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish, o‘rganish motivatsiyasini, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish;
- o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasini o‘zlashtirishning umumiy ko‘nikmalarini shakllantirish.

“**Kvest**” – bu ishtirokchi tomonida ta’limi o‘yindan ruhiy muammolarni hal qilishni, syujet orqali o‘tishni talab qiladi. Bunda topshiriqlar haqiqiy va virtual shaklda taqdim etiladi. Kvestlar ishtirokchilari ushbu o‘yin faoliyatining jozibali tomoni sifatida mantiq, e’tibor, aqlning rivojlanishiga ko‘maklashadi [22].


Tinglovchilarning ta’lim motivatsiyasini oshirish va guruhli tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun “**Kvest**” texnologiyasi zamonaviy ta’lim texnologiyasi bo‘lib xizmat qiladi [23]:

- tinglovchining o‘zaro ta’sir qiladigan ma’lumotlarning bir qismi yoki barchasini global tarmoq orqali ehtiyojlarga yo‘naltirilgan faoliyat;

- rolli o‘yin elementlari bilan muammoli vazifalar hosil qilinadi. Bunda ilmiy-uslubiy manbaalarni turli adabiyotlarni o‘rganish, shuningdek, global tarmoqdan qidirishga yo‘naltiradi [24];

## 2.2.KVEST DARSLARINING

### **“Kvest” texnologiyasi asosida darslarini loyihalash kompetentligini takomillashtirish texnologiyalari**



Bugungi kunda maktab o‘qituvchilarining uzluksiz malaka oshirish tizimida, ularning loyihalashga oid kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu o‘z navbatida malaka oshirish kursi tinglovchilarining loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalarni joriy qo‘llashni taqozo etadi. Bunday texnologiyalardan biri, “Kvest” texnologiyasi hisoblanadi. “Kvest” texnologiyasi ta’lim oluvchiga mashg‘ulot vaqtida turli mantiqiy topshiriqlar shajarasini taklif etgan o‘yin shakldagi texnologiya hisoblanadi. Bu didaktik o‘yin ta’lim vazifalari, vaqt cheklovlarni samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

“Kvest” texnologiyasi ishtirokchini turli jumboqli savollar va topshiriqlar asosida aqliy zo‘riqishni hosil qiladi. Bunday noananaviy darslarning dolzarbligi malaka oshirish kursi tinglovchilarning kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tinglovchilarning mashg‘ulot jarayonida faol tashkilotchilari bo‘lishga imkon beradi. Chunki ular materialni mustaqil tanlash va tuzish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida ilmiy va amaliy faoliyat

ko'nikmalarini egallab, maqsadga erishish uchun mustaqil qaror qabul qilish kompetentligini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [25].

“Kvest” texnologiyasi asosida o'qitiladigan mashg'ulot mavzularini loyihalash, ularni amalga oshirish uchun ijodiy va motivatsiyali jarayon hisoblanadi. Shu bois, ushbu texnologiyani malaka oshirish jarayonida qo'llash samarali hisoblanadi.

Mazkur texnologiyadan foydalanib berilayotgan topshiriq syujetlari har xil bo'lishi mumkin – detektiv, ilmiy-fantastik filmlar va kitoblar, mashhur kompyuter o'yinlaridan tortib, noyob mualliflik ssenariylariga qadar.

Shubhasiz, material yangi ma'lumotni mustaqil olish va tizimlashtirish jarayonida yaxshiroq o'zlashtiriladi. Shuning uchun, ta'lim jarayonida “Kvest” texnologiyalaridan foydalanish orqali zamonaviy axborot jamiyatining talablariga mos mutaxassislarni malakasini oshirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga, shaxsiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi [26]. Shu bois, “Kvest” texnologiyasidan foydalanish orqali malaka oshirish kursi tinglovchilarning kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim topshiriqlari loyiha faoliyatini o'z ichiga oladi. Sinfda loyiha usuli va o'yin texnologiyalari sinteziga asoslangan “Kvest” – loyiha faoliyatidan foydalanish muvaffaqiyatli hisoblanadi. Bu usul sarguzasht yoki o'yin bilan bog'liq uzluksiz va yo'naltirilgan qidirishdan iborat. Uni amalga oshirishning turli shakllari bo'lishi mumkin: ta'lim veb-topshiriqlari; sarguzasht, o'yin vazifalari; jonli topshiriqlar.

O'quv va tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshiradigan, muammoli va rolli o'yin elementlari bo'lgan muayyan muammoli vazifani bajarishga qaratilgan jonli topshiriqlar alohida qiziqish uyg'otadi. SHu bilan birga, maqsadga erishish uchun, harakat sodir bo'ladigan hududning resurslari, axborot resurslaridan foydalanish mumkin [27].

Ta'lim oluvchi “Kvest” texnologiyasi asosida loyihasi ustida ishlash jarayonida real jarayonlarni o'rganadilar, muayyan vaziyatlarni

boshdan kechiradilar, hodisalarga chuqur kirib boradilar, yangi jarayonlar va ob'ektlarni quradilar. Axborot faoliyati nuqtai nazaridan, "Kvest" loyihasi ishtirokchilari, ular ustida ishlayotganda, kelajakda ma'lumotlarni qidirish, saqlash, uzatish va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish qobiliyatini shakllantiradilar hamda taqqoslashning asosi, yangi ma'lumotlarini sintez qiladi [27].

Bu usul malaka oshirish kursi tinglovchilarning umumiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi: har xil kontekstlarga nisbatan kasbiy faoliyat muammolarini hal qilish yo'llarini tanlash; kasbiy faoliyat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish va tahlil etish; jamoada ishlash, hamkasblar, rahbariyat bilan samarali muloqot qilish; kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish; vazifalarni bajarish natijasi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish bilan, ularning ishini tashkil etish va nazorat qilish; muammolarni hal qilish, tavakkalchiliklarni baholash va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish; tarkibiy bo'linmaning ishini rejalashtirish va tashkil etishi; faoliyat jarayonini va natijalarini tahlil qilish.

"Kvest" texnologiyasining yuqorida qayd etilgan imkoniyatlarini hisobga olgan holda malaka oshirish jarayoniga tadbiq etish orqali samarali natijaga erishish mumkin degan xulsaga keldik. SHu bois, ushbu texnologiya asosida darslarni loyihalashning texnologik xaritasini ishlab chiqildi (2.1-jadvalga qarang). Texnologik xaritani ishlab chiqishda E.A. Igumnova [27], I.M.Logvinova [28], N.YA.Moroz [29] larning ilmiy va uslubiy ishlaridan foydalanilindi.

## “Kvest” texnologiyasi asosida darslarni loyihalashning texnologik xaritasi

### Ta’lim kvestining texnologik xaritasi

#### 2.4. Jadval

<b>Kvestelementlari</b>	<b>Kvestni ishlab chiqish talablari va mazmuni</b>
Nomi	Qisqa, jozibali, original bo‘lishi kerak
Kvest turi	CHiziqli, halqa va muammoli kvestlar. Kvest turini tanlash kvest darsini bosqichlari rejasini tuzishda muhim hisoblanadi.
Kvest yo‘nalishi	O‘quv predmeti yoki o‘quv faoliyatining yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.
Maqsad va vazifalari	Maqsad umumlashtirilgan xarakterga ega bo‘lishi, tashhis qo‘yilishi kerak bo‘ladi.
Muddati	Ta’lim kvestlari bir dars uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin, bir nechta darslar, bir hafta, bir chorak, bir yil yoki boshqa vaqt davri (qisqa muddatli yoki uzoq muddatli).
Ishtirokchilarni xususiyatlari yosh	O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda (maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich, boshlang‘ich yoki o‘rta maktab o‘quvchilari, talabalar, kattalar) va ularning o‘quv ehtiyojlari.
Kvest ssenariysi	Kvest biror bir afsona, ssenariy asosida tashkil etiladi. O‘yin

	<p>boshlanishidan oldin voqealar yoki voqea qahramonlari haqida hikoya qilib beriladi. Uni ishlab chiqishda, ijodkorlik, kreativlik bilan: voqealarni bo‘rttirish, mashhur belgilarni o‘zgartirish va boshqalar orqali tuziladi. SHunday qilib, real yoki tasavvur (vertual) olamida o‘zingizni o‘yin ichida tasavvur etishingiz mumkin.</p>
Kvest qahramonlari	<p>Kvest mualliflari qahramonlar ro‘yxati va ularning xususiyatlarini taklif qiladilar. Qahramonlarning xarakterlari butunlay badiiy to‘qima yoki real bo‘lishi mumkin.</p> <p>Kvest ishtirokchilarining rollarini tanlash qoidalar bilan belgilanadi: qur’a tashlash yoki ishtirokchilar qobiliyatlari bo‘yicha tanlanishi mumkin.</p>
Asosiy vazifa / asosiy g‘oya	<p>Asosiy vazifa muammoli xarakterga ega bo‘lishi kerak. Asosiy vazifani ishlab chiqishda jumboqli topishmoq, muammoli vazifalar foydalanish mumkin. Bunda ijodkorlik, ilhom va kreativlik sizga vazifalar turlarini diversifikatsiya (turli xil) qilishga yordam beradi.</p>
Kvest rejasi va unga yordam beruvchi yo‘l	<p>O‘yin rejasida bir qator hodisalarni ifodalaydigan (asosiy sxema), masalan, bosqichlar, stansiyalar ketma-ketliklar; Bu bosqichlardan o‘tish uchun rag‘batlantirish qoidalari ishlab chiqilishi, bonuslar</p>



	<p>yoki jazo qo'llanilishi mumkin. Reja mazmuniga an'anaviy elementlarni kiritish maqsadga muvofiq: ekspozitsiya, ketma-ketliklarni bog'lash uchun ko'priklar, rivojlantirish harakatlari, avj nuqtasi va echimlar.</p>
Vazifalar / to'siqlar	<p>O'yin rejasi bo'ylab olg'a borish uchun asosiy vazifa bilan bir qatorda har xil turdagi qo'shimcha vazifalar (ishtirokchilar bir nuqtada uzoq vaqt to'xtab qolmasliklari uchun)ham ishlab chiqiladi; ular orasida muammoli masalalar taklif etilishi maqsadga muvofiqdir.</p>
Yo'nalishlar	<p>Asosiy va qo'shimcha vazifalarni hal etishga qaratilgan maqsadli qidiruvni tashkil etishga yordam beradigan turli maslahatlar, teglar, belgilar tayyorlash mumkin.</p>
Manbaalar	<p>Kvest bosqichlari turli xil manbalardan foydalaniladi. Masalan: adabiyotlar ro'yxati, internet manbalar.</p>
Elektron ta'lim resurslar	<p>Multimediali ilovalar, taqdimotli o'quv resurslar, videoroliklar (ijtimoiy), elektron gadjetlar.</p>
Texnik qurilma va uskunalar	<p>Video ko'zgu, zamonaviy kmpyuter texnologiyalari, mobil qurilmalar.</p>
O'quvchilar faoliyatini baholash mezonlari	<p>Mezonlar o'qituvchi tomonidan taklif etilayotgan vazifalar turi va bajarilgan o'quv "mahsuloti" topshirig'iga qarab ishlab chiqiladi.</p>

	<p>Har bir bosqichdan o‘tishning o‘zi baholash sifatida qabul qilinishi ham mumkin.</p> <p>Baholash talabalari bilan ishtirokchilarni oldindan tanishtirib borishingiz mumkin, masalan: jarima yoki rag‘bat kartochkalar orqali.</p>
<p>Kvestning natijasi va refleksiya</p>	<p>Natija asosiy vazifaning bajarilishiga mos kelishi kerak, masalan: muammo echildi, topishmoq topiladi, kashfiyot qilindi va hokazo. Kvest mahsuli sifatida ijtimoiy rolik, bukleti, taqdimotlar yoki kashfiyotlar natijalari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.</p> <p>Refleksiya variantlarini tanlash kvestning maqsad va vazifalariga bog‘liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq (refleksiya ekrani, o‘z-o‘zini baholash, “epizodlar” va boshqalar) tashkil etadi.</p>

### 2.3. KVEST TEXNOLOGIYASI ASOSIDA LOYIHALASHTIRILGAN DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR

"Ko'pburchaklar maydoni" mavzusida kvest dars ishlanmasini keltiramiz (3.2-jadvalga qarang).

3.2-jadval.

Elementlar tarkibi	Kvestni ishlab chiqish talablari va mazmuni
Nomi	Markazga yordam!
Kvest turi	Halqa kvestiga doir.
Kvest yo'nalishi	matematika fanidan malaka oshirish kursi tinglovchilari guruhiga "Fanni o'qitish metodikasi" moduli. Tabiiy fan va matematik yo'nalish. Kvestlar geometriya darslarida, asosiy maktabda va darsdan tashqari faoliyatda qo'llanilishi mumkin.
Maqsad va vazifalari	<p><b>Maqsad:</b> "Ko'pburchaklar yuzasi" mavzusi bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish; ko'pburchaklar maydonlarini hisoblash bo'yicha masalalar echish malakasini oshirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <p>1. Tinglovchilarning "Ko'pburchaklar" mavzusiga doir ko'nikmalarini takomillashtirish, quyidagilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- muammolarni hal qilishning nostandart yo'llarini tahlil qilish va topish;</li> <li>- real vaziyatlarni modellashtirish, qurilgan modellarni o'rganish, olingan natijani izohlash;</li> <li>- chizmalardan, modellardan va hayotda foydalanilib kelinayotgan geometrik shakllarni tanib olish;</li> <li>- geometrik shakl va formulalarning o'rganilgan xossalarni geometrik masalalar va amaliy</li> </ul>

mazmundagi masalalarni echish uchun qo'llash.

2. *Tinglovchilarning shakllantirishga natijalariga rag'batlantirish:* *ko'nikmalarini qaratilgan mavzulararo bog'lashga erishishni*

- kundalik xayotdagi muammoli vaziyat sharoitida matematik muammoni ko'rish;

- matematik masalalarni echish uchun zarur bo'lgan turli manbalarda ma'lumotlarni topish;

- matematik masalani tushunarli shaklda taqdim etish;

- to'liqsiz va ortiqcha, aniq va ehtimoliy axborot sharoitida qaror qabul qilish;

- tasvirlash, izohlash, argumentlash uchun matematik ko'rgazmali vositalarni tushunish va ulardan foydalanish;

- muammoli vazifalarini hal etishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

3. *Ishtirokchilarni shaxsiy natijalarga erishishga ko'maklashish:*

- fikrlaringizni aniq, ravshan, fikrlarini asosli ifodalash, misollarga namunalar va teskarisidan isbotlab berish qobiliyati;

- matematika fani inson faoliyati sohasi sifatida, uning yangilanishi, taraqqiyoti uchun ahamiyati haqida fikrlar;

- fikrlash ijodkorligi, tashabbuskorlik, topqirlik, matematik masalalarni echishda faollik;

- matematik ob'ektlarni, muammolarni, echimlarni, mulohazalarni hissiy idrok eta olish

Muddati	Qisqa muddatli. 2 soat (1 juftlik)
Ishtirokchilar yoshi/ maqsadli guruh	Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi matematika fani o'qituvchilari kursi tinglovchilari (YOshi aralash). 24 ta tinglovchi
Kvest ssenariysi	Mashg'ulot o'tkaziladigan xona turli didaktik materiallar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanadi.
Kvest qahramonlari	Jamoalar: "Me'morlar", "Muhandislar", "Dizaynerlar", "Quruvchilar", "Bog'bonlar" nomlari bilan
Asosiy vazifa/asosiy g'oya	<p>Izlanishlari natijasida ishtirokchilar maydon shakllarini geometrik figuralar bilan o'zgartira olishlari; Real vaziyatlarni maydonlarni geometriya tilida tasvirlay olishlari; geometrik shakllar yuzalarini topishga doir amaliy masalalarni echishlari; jamoada ishlashlari lozim.</p> <p>Ushbu jarayon uchun dala maydonida ish va ta'mirlash turiga mos keladigan oltita didaktik to'plam mavjud.</p> <p>Jamoalar o'yin boshlanishidan oldin o'zlariga kerakli jixozlar va har bir jamoa o'z yo'nalishi bo'yicha topshiriq varaqalarini oladilar. Vazifalarning barcha bosqichlaridato'g'ri bajarilganda jamoalar bir harfni mukofot sifatida oladilar, ulardan oxir-oqibat so'z to'plashlari va uni izohlashlari kerak bo'ladi.</p>
Kvest rejasi va unga yordam beruvchi yo'l	Izlanishdagi natijalarga oldindan belgilangan yo'nalish bo'yicha jamoalar turli xil didaktik material sifatida taqdim etilgan vazifalarni bajarish orqali erishiladi. Har bir bosqich uchun bir xil miqdorda vaqt ajratiladi, vazifa bajarilgach, jamoalar bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tadilar. Barcha bosqichlardan o'tgan va butun so'zni jamlagan jamoa g'olib hisoblanadi.

	<p>Kvest bosqichlari: 1) "Yo‘lakcha", 2) "Gulzor", 3) "O‘rindiqda"; 4) "YOtoqxona", 5) "Ko‘chatlar", 6) "Ekirzor".</p> <p>Kvest ochiq havoda (sport maydonchasi, muassasa hovlisi) yoki maxsus tayyorlangan xonada o‘tkazilishi mumkin.</p>
Vazifalar / to‘siqlar	Agar jamoa vazifani uddalay olmasa, xato qilsa yoki nomunosib o‘ynashga harakat qilsa, qo‘shimcha vazifani bajarish kerak bo‘ladi.
Yo‘nalishlar	<p>Bosqichlardan o‘tish uchun oldindan belgilangan yo‘nalish bo‘yicha keyingi bosqichning o‘rnini tezda aniqlash va ulardan birortasini o‘tkazib yubormaslikka harakat qilish kerak bo‘ladi.</p>
Manbalar	Kvestga tayyorgarlik ko‘rish uchun ishtirokchilarga quyidagi mavzular bo‘yicha materialini takrorlash taklif etiladi: "Ko‘pburchaklar", "YUzalarni hisoblash".
Elektron ta’lim resurslar	Multimediali ilovalar, taqdimotli o‘quv resurslar, videoroliklar (ijtimoiy), elektron gadjetlar.
Texnik qurilma va uskunalar	Video ko‘zgu, zamonaviy kmpyuter texnologiyalari, mobil qurilmalar.
O‘quvchilar faoliyatini	To‘g‘ri bajarilgan vazifa uchun ingliz tilida berilgan harflarni qo‘lga kiritadilar.

baholash mezonlari	
Kvestning natijasi o'quv "mahsuli" va refleksiya	Kvestning natijasi asosiy vazifani bajarish bilan bog'liq: ishtiroklar faxriylarga yordam ko'rsatdilar va "STREAM" so'zini yig'adilar, Ishtirokchilar topgan so'zlarini namoyish etib, tarjimasini bahslashadilar.

**Jamoalar yo'nalishi quyidagi kvest bosqichlari orqali amalga oshiriladi.**

3.3-jadval.

Jamoalar nomi	Kvest bosqichlari					
	"Yo'lakcha"	"Gulzor"	"O'rindiqda"	"YOtoqhona"	"Ko'chatlar"	"Katta maydon"
"Me'morlar"	1	2	3	4	5	6
"Muhandislar"	2	3	4	5	6	1
"Dizaynerlar"	3	4	5	6	1	2
"Quruvchilar"	4	5	6	1	2	3
"Bog'bonlar"	5	6	1	2	3	4


**1-bosqich. "Yo'lakcha".** Bu bosqichda o'quvchilardan tangramdan teng o'lchamli figura yasash talab etiladi.



**Materiallar va jihozlar:** tangram, qalam, daftar.

**Vazifa:** Darz ketgan yo‘lkani plitalar bilan bezash maqsadida parallelogramm, trapetsiyalarni teshik kvadrat va teshik to‘rtburchak bo‘laklari ichiga joylashtirib chiqing. Har bir shaklning yuzasini aniqlang.











**Qo‘shimcha vazifa:**  $S_{ABCD}$ ni toping.




**2-bosqich. "Gulzor".** Bu bosqichda ishtirokchilar o‘zlariga tegishli gulzorlarga gul ekishlari kerak. Gulni tanlash tegishli shaklning maydonini hisoblash imkonini beruvchi formulaga bog‘liq.

**Materiallar va jihozlar:** gulli kartochkalar, figurali kartochkalar, ruchka, javob blankasi.

**Topshiriq:** Tegishli gulzorlar maydoniga mos gullarni ekish, berilgan gullardagi formulalar qaysi figuraga tegishli bo‘lsa, gul shu maydonga ekiladi. Ya’ni muvofiqlik jadvalini to‘ldiring.

<p><b>A</b></p>  <p><math>S = \frac{a+b}{2} \cdot h</math></p>	<p><b>B</b></p>  <p><math>S = ab</math></p>	<p><b>C</b></p>  <p><math>S = ah</math></p>	<p><b>D</b></p>  <p><math>c^2 = a^2 + b^2</math></p>	<p><b>E</b></p>  <p><math>S = \pi R^2</math></p>
<p><b>F</b></p>  <p><math>S = \frac{a \cdot b}{2}</math></p>	<p><b>J</b></p>  <p><math>S = \frac{d1 \cdot d2}{2}</math></p>	<p><b>H</b></p>  <p><math>S = \frac{a^2 \cdot \sqrt{3}}{4}</math></p>	<p><b>G</b></p>  <p><math>S = \frac{a \cdot h}{2}</math></p>	<p><b>K</b></p>  <p><math>S = \sqrt{p \cdot (p-a) \cdot (p-b) \cdot (p-c)}</math></p>






**Gulzor**

**Moslik jadvalini to'ldiring.**

**2.4-jadval.**


No	Gulzor shakli	Gul formulasi

**Qo'shimcha vazifa: SABCni toping.**



**3-bosqich."O'rindiqda".** Bu bosqichda ishtirokchilarga biroz dam olish, o'rindiqga o'tirib krossvord echish taklif etiladi.

**Materiallar va jihozlar:**krossvordli tarqatma, qalam.



**Gorizontal:**

4.Qarama-qarshi tomonlari parallel va teng bo'lgan to'rtburchak...

6. To'rtburchak tomonlari yig'indisi...

7. To'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasi kvadrati katetlar kvadratlari yig'indisiga teng. Bu ... teoremasi.


**Vertikal:**

1. Tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak...

2. Fakat ikki tomoni parallel bo'lgan to'rtburchak...

3.  $S = \pi R^2$  formula bilan yuzasi hisoblanadigan geometrik figura  
... $S = a \cdot h / 2$  formula bilan yuzasi topiladigan geometrik figura...

**Qo'shimcha topshiriq:**  $S_{ABCD}$ ni toping.




**4- bosqich. "YOtoqxonona".** Jamoa yotoqxonani yangilashga yordam berishi kerak. YOtoqxonona uchun qancha linoleumni sotib olishinishi kerakligini hisoblashlari lozim.

**Materiallar va jihozlar:** metr, yotoqxonaning plani bo'lgan xarita, ruchka.


**Vazifa:** Yotoqxonona uchun qancha ro'lon linoleum kerakligini hisoblang, bunda rulon kengligi 3.50 m va uzunligi 2.8 m.

Yotoqxonona rejasi

Hisoblashlar




**Qo'shimcha vazifa:** Teng yonli uchburchak berilgan,  $SABC$ ni toping.



**5-bosqich. "Ko'chatlar".** Ishtirokchilar ma'lum ma'lumotlarga asoslanib, ko'chatlar o'tqazilgan maydon yoki maydonning bir qismini aniqlash taklif etiladi.


**Materiallar va jihozlar:** topshiriq xaritasi, ruchka.

**Qo'shimcha vazifa:**



Vazifa: Maydon kvadrat shakliga ega. Karam ekilgan maydon  $84 \text{ cm}^2$  bo'lsa, butun maydonni o'lchamini aniqlang/

**6-Bosqich. "Katta maydon".** Bu bosqichda hovli bog‘idagi eng katta maydonni aniqlash kerak.



**Materiallar va jihozlar:** topshiriq xaritasi, ruchka.

**Topshiriq:** Tasvirlardan qaysi biri eng katta maydonni egallaydi?

Kvest yakuni da guruhlar to‘plagan harflar birlashtiriladi va tarjimasi muhokama qiladilar.

2.5-jadval.

<b>S</b> (Yo‘lakcha)	<b>T</b> (Gulzor)	<b>R</b> (O‘rindiqa)
<b>E</b> (Yotoqxona)	<b>A</b> (Ko‘chatlar)	<b>M</b> (Katta maydon)

Maktab matematika o‘qituvchisi keltirilgan texnologiya asosida darslarni olib borsa, o‘quvchilar hayotiy xodisalarni tadbqiqini o‘rganish orqali matematikaga qiziqishini oshirish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa maktab o‘quvchilarini matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va matematikaviy kompetensiyalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda dars faoliyati jarayonida jamoali o‘quv so‘zlashini olib borishga, narsalarni ko‘rish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, o‘qish-kuzatish, jamoali loyihalashga urg‘u beriladi. Umuminsoniy ko‘nikmalarga (analiz, sintez, tasniflash, o‘xshatish, umumlashtirish) erishish uchun o‘yin usullari: didaktik o‘yinlar, taqqoslash va umumlashtirish usullari ishlatiladi [29].

Bularni amalga oshirish uchun dastlab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishni taqoza etadi. SHu bois, quyida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilvri uchun chiziqli kvest texnologiyasi yordamida dars ishlanmasini keltiramiz (2.6-rasmga qarang).

3.4-jadval.

### **Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun chiziqli kvest dars ishlanmasi**

<b>Elementlar tarkibi</b>	<b>Kvestni ishlab chiqish talablari va mazmuni</b>
Nomi	Xazinani qo‘lga kirit! CHiziqli kvest.
Kvest yo‘nalishi	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malaka oshirish kursi “Boshlang‘ich ta‘limni o‘qitish metodikasi” moduli, “Boshlang‘ich ta‘limda integratsiya jarayonini tashkil etish” mavzusi.
Maqsad va vazifalari	<b>Maqsad:</b> Tinglovchilarning mulohaza yuritish, fikrlashga undovchi savollar yordamida darsni tashkil qilish metodikasini takomillashtirish; <b>Vazifa:</b> Tinglovchilarning PISA

	halqaro baholash dasturi masalalarini o'rganish va darslarini kvest texnologiyasi asosida loyihalash kompetentligini rivojlantirish.
Muddati	Qisqa muddatli. 2 akademik soat (1 juftlik)
Ishtirokchilar yoshi / maqsadli guruh	Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari kursi tinglovchilari (YOshi aralash). 24 ta tinglovchi
Afsona	Xazinani qo'lga kirit! Qaroqchilar g'orga xazina yashirishgan, bu xazinani topish uchun xarita berilgan, eng qisqa maqbul yo'l orqali, qaroqchilardan oldin xazinani qo'lga kiritish kerak. Tasavvur (vertual) olamida o'zingizni o'yin ichida ishtirokchiga aylanadilar.
Kvest qahramonlari	Qaroqchilar va oddiy guruh ishtirokchilari.
Asosiy vazifa / asosiy g'oya	Xazinaga olib boruvchi son va shartli belgilar tasvirlangan xarita berilgan. Bosqichma-bosqich topshiriqlarni echimini to'g'ri topish orqali, ikkinchi eng qisqa yo'lni ko'rsatuvchi nuqtaga o'tadilar. Berilgan topshiriqlarda masala echimi va ikkinchi bosqichga boruvchi kalit so'z berilgan bo'ladi. Kalit so'zlar xaritada shartli belgilar tasvirlar ko'rinishida ifodalanadi. SHu

	shartli belgi orqasidagi topshirish ikkinchi bosqich, ya'ni ikkinchi qisqa yo'lni ko'rsatishga xizmat qiladi.
Kvest rejasi va unga yordam beruvchi yo'l	Turli xil mavzuga oid masala va muammoli topshiriqlar sonli echimlari xaritada berilgan. SHu songa mos keluvchi shartli belgilar aniqlanadi. Alohida berilgan shartli belgilar topshiriqlari keyingi bosqichga yo'naltruvchi topshiriqlardan iborat bo'ladi. Agarda masala echimi noto'g'ri topilganda boshqa son va unga mos shartli belgidagi topshiriqlar noto'g'ri yo'ldan borayotganlarini bildiradi hamda bu yo'llarni jarima sifatida belgilanadi. Jarima kartochkalarida esa qo'shimcha to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi topshiriqlar beriladi. Ishtirokchilar baribir to'g'ri yo'lga boradilar, ammo eng qisqa emas balki uzoq yo'l bilan. Bu orada qaroqchilar guruhi xazinaga etib olish ehtimoli oshadi.
Vazifalar / to'siqlar	O'yin rejasi berilgan topshiriqlar mulohaza yuritishga undovchi, soddadan murakkabga yo'naltirilgan masalardan iborat, qo'shimcha topshiriqlar osonroq, soddada masala va matematik aniq faktlardan foydalaniladi. Doimiy o'qituvchida yordamchi vazifa,

	topshiriqlar mavjud bo‘ladi va dars zerikarli bo‘ligini oldini oladi.
Yo‘nalishlar	Xaritada topilgan sonli echim-yo‘llari turli rangdagi qalam yoki ruchkalar bilan tutashtirib boriladi.
Manbalar	Adabiyotlar ro‘yxati, QR-kod, internet manbalar ro‘yxati, tarqatmali vositalar.
Elektron ta’lim resurslar	Multimediali ilovalar, taqdimotli o‘quv resurslar, videoroliklar (ijtimoiy), elektron gadjetlar.
Texnik qurilma va uskunalalar	Video ko‘zgu, zamonaviy kmpyuter texnologiyalari, mobil qurilmalar.
O‘quvchilar faoliyatini baholash mezonlari	Xazinaga olib boruvchi 5 ta bosqich, eng qisqa yo‘l har biri 2 balldan, topilgan noto‘g‘ri echim, yo‘llar 1 balldan baholash sifatida qabul qilinadi.
Kvestning natijasi, refleksiya	<p>Natija dars mazmuniga mos ma’lumotlar mustaqil o‘zlashtiriladi. O‘zlarini kasbiy mahoratlarini rivojlantiradi.</p> <p><b>Refleksiya.</b> Hammasi o‘z qo‘limda chizmasi orqali darsga bo‘lgan fikrlar aniqlanadi. Taklif va tavsiyalar tinglanadi.</p> <p>Kvest darsi xazinani eng qisqa yo‘l bilan qo‘lga kiritgan guruh g‘olib sifatida e’lon qilinadi. To‘plangan ballar hisoblanib, guruh ishtirokchilariga teng taqsimlash orqali baholanadi.</p>



**Darsning tashkiliy qismi.** Mashg‘ulot olib boruvchi professor-o‘qituvchi tinglovchilar bilan salomlashadi va dars mavzusi, sana doskaga yozib qo‘yiladi.

Dars zamonaviy texnologiyalardan biri kvest texnologiyasi asosida tashkil etilishi va darsning texnologik xatirasi asosida kvest ssenariysi, mazmuni, shartlari tushuntiriladi.

Oldindan tayyorlangan xarita taqdim etiladi va xaritada ko‘rsatilgan shartli belgilar alohida kartochkalar ko‘rinishida alohida doska yoki flipchatga ilinadi.




Xaritadagi shartli belgilar topshiriqlari taqdim etiladi.

Kvest darsiga kirish maqsadida o‘yin boshida turli motivatsion o‘yin yoki enerjayerlardan foydalanish maqsadga muvofiq.


**Guruhlarga ajratish:** “Atomlar va molekular”.

Kvest rejasidagi birinchi bosqich savoli trener tomonidan taqdim etiladi.




**1-topshiriq.** (Matematika). Berilgan geometrik shakllar ichidan yuzasi  $1 \text{ m}^2$  bo‘lgan shakl tomonlarini toping.

Tinglovchilar masala echimini topadilar va xaritada belgilab oladilar.




SHartli belgi orqasidagi topshiriqni echishga kirishadilar. 1-topshiriq echimi 3 ga teng xaritada xazinaga olib boruvchi boshlang'ich nuqta belgilab olinadi. Unga mos belgi orqasida xazinaga olib boruvchi ikkinchi yo'lga olib boruvchi masala, topshiriq berilgan va guruhlar echishga kirishadilar.

**2-topshiriq.** (Atrofimizdagi olam). Berlinda tungi 1:00 da, Sidneyda kunduzgi 10:00 da Berlinda 15:00 bo'lganda Sidneyda soat necha bo'ladi.



2-topshiriqning javobi 12 ga teng, ular xaritadagi 12 raqamini belgilaydilar va unga mos shartli belgini olishadi, keyingi topshiriqni echishga kirishadilar.

Agar guruhlar birinchi topshiriq echimini noto'g'ri topishsa, boshqa raqamga mos keluvchi shartli belgi orqasidagi topshiriqni echimini topishga kirishadi, bu esa to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi qo'shimcha topshiriq berilgan.



Agar ishtirokchilar 4 javobini topishsa, unga qo‘shimcha mos shartli belgida Pifagor teoremasi keltirilgan. Ishtirokchilar Pifagor teoremasi uchburchaklarda o‘rinli bo‘lganligi uchun, ular 3 javobiga, ya’ni boshlang‘ich nuqtaga boradilar. Noto‘g‘ri yo‘llar qizil rangli, to‘g‘ri yo‘lni esa ko‘k rangli qalam bilan tutashtirib borish kerakligi tushuntiriladi.

**3-topshiriq.** (O‘qish) Ishtirokchilarga matn beriladi. Ertak, hikoya yoki masal bo‘lishi mumkin. Ishtirokchilarni matnni o‘qib, yashirilgan so‘zni topishlari kerak bo‘ladi. Qora qilib ajratilgan so‘zlarda xaritadaagi xazinaga olib boruvchi keyingi yo‘l berilgan. YA’ni ular yigirma to‘rt so‘zini topadilar va xaritada belgilaydilar. 24 soniga mos shartli belgi keyingi topshiriqni echishga kirishadilar.

Бир бор экан, бир йўк экан. Оддийгина бир қалам бўлган экан. Бир кунни унинг эгаси Валижон қаламини стол устида унтиб қолдирибди. Пайтдан фойдаланган сичқонча инидан чиқиб қаламни тишлаб олиб қочмоқчи бўлибди.

— Илтимос, мени қўйиб юбор — деб ялинибди Қалам. — Мени нима қилмоқчисан? Еғочдан ясалган бўлсам, мени еб бўлмайди.

— Тишларим қичишяпти, шунинг учун сени ғажимоқчиман, — дебди сичқонча ва қаламни қаттиқ тишлаб олибди.

— Ўғрияпти, — деб бақирибди Қалам. Мен чизишни жуда яхши кўраман. Майлими сўнгги бор расм чизсам? — дебди Қалам.

Сичқон рози бўлибди. Қалам зўрға нафасини ростлаб оппоқ варақка каттагина айлана чизибди.

— Бу нима? Пишлоқми? — деб сўрабди сичқонча.

— Бўлиши мумкин, — дебди босиқлик билан Қалам ва чизишда давом этибди.

Аввал юзини кейин эса кулоқлари ва катта-катта кўзларини чизибди.

— Ахир, бу мушук-ку! Йўк бўлди. чизма, илтимос, — деб сичқон югурганча инига кочиб кетибди.

— Ҳа, бу ҳақиқий мушук, — деб бақирибди Қалам.

Шундан буён сичқонча инидан ташқарига чиқмайдиган бўлибди. Валижоннинг қалами эса ҳали соғ-омон, фақат озгина кичрайган, ҳолос.

“Kvest” texnologiyasidan foydalanib, maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida darslarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan texnologik xarita va namaunaviy dars ishlanmalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu keltirilgan texnologik xarita va namunaviy dars ishlanmalar tinglovchilarning o‘z kasbiga oid yangiliklarni va pedagogik faoliyatida turli o‘qitish texnologiyalarning joriy etishni mazmuni, bosqichlarini, algoritmini va usullarini uzluksiz takomillashtiradi. Buning natijasida maktab o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida o‘z kasbiga va olib borayotgan mashulotlarni o‘tkazishga oid kompetentligini rivojlanadi.

## XULOSA



Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'ymoqda. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxonada va ta'tilda ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi informatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi.

Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. «Maktab o'qituvchilarining “kvest” texnologiyasi asosida darslarini loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish mavzusida tayyorlangan uslubiy qo'llanmamizda quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. “Kvest” texnologiyasi maktabda darslarni o'tkazish shakli sifatida, o'quvchilarga harakatning faol ishtirokchilari bo'lish hamda bir -birlari bilan ijodiy muloqot qilish imkonini beradi, tezkor qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Buning natijasida o'qituvchi samarali natijalarga erishadi.

2. Maktab o'qituvchilarining “Kvest” va “Veb-kvest” texnologiyasi yordamida darslarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirishda tadqiqot doirasida shakli etilayotgan bosqichlari, algoritmi didaktik o'quv vositalaridan foydalanish lozim;

3. Maktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni metodik ta'minoti didaktik elektron ta'lim vositalari (virtual ta'lim texnologiyalari, aqilli o'quv vositalari, o'rgatuvchi dasturlar, diagnostik

dasturiy vositalar) va “Veb-kvest” texnologiyasi asosida takomillashtirishni taqoza etadi.

4. “Kvest” texnologiyalari yordamida mashg‘ulotlarni tashkil etish ishtirokchilarni o‘quv qidiruv faolligini oshiradi hamda muammoning o‘ziga xos yechimlarini topish qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, o‘yin davomida jamoalar nostandart vaziyatlarda maslahatlar va yechimlarni topish orqali mantiqiy muammolarni hal qilishadi. Ishtirokchi berilgan vazifani bajarib bo‘lgach, navbatdagi vazifani bajarishga o‘tishadi. Buning natijasida ishtirokchilarning fanga oid motvatsiyasi oshadi, kreativ fikrlashi rivojlanadi.

5. Maktab o‘qituvchilarining “Kvest” texnologiyalari asosida kompetentligini baholashda taklif etilayotgan mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi.

6. “Kvest” texnologiyasi asosida maktab o‘qituvchilarni o‘quv jarayonini loyihalashga oid pedagogik faoliyatni olib borishning tarkibiy qismlari (izlanuvchanlik, hamkorlik bosqichi, o‘quv mashg‘ulotlarni loyihalay olish) va kasbiy ijodiy vazifalari kreativ kompetentligiga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

### **Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni taqdim etamiz:**

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darslarni tashkil etishda “Kvest” texnologiyasida foydalanish tavsiya etiladi. “Kvest” texnologiyasi yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘zini ustida mustaqil ishlashga va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikma va malakalari shakllanadi.

2. Maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbini rivojlantirishda qo‘llanma doirasida yaratilgan axborot-ta’lim muhitidan foydalanishni tavsiya etamiz.

3. “Kvest” texnologiyasi asosida darslarni loyihalashda fanning xususiyatida kelib chiqib, tashkil etish bosqichlarini va algoritmlarini takomillashtirish va moslashtirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-sonli «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gifarmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gifarmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-6108-sonli farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-4963 qarori.

6. Птицына Н.А. Подготовка будущего учителя к педагогическому проектированию // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.- Тула, 2009.-10 с.

7. Баймурзина Г.Х. “Деятельность учителя при проектировании урока математики в соответствии с ФГОС ООО” // презентация.-<https://ppt-online.org/619847>

8. Боймуродова Г.Т. малака ошириш тизимини модернизациялаш жараёнида ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини узлуksiz ривожлантириш механизми // Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2020. – 68 б.

9. Е. Ф. Мосткова. Роль квест-технологий в образовании и воспитании Школьников // Дополнительное образование детей в изменяющемся мире: развитие востребованности, привлекательности, результативности : материалы III Международной научно-практической конференции / Челябинск – Москва, 26–27 октября 2017 г. / под ред. А. В. Кислякова, А. В. Щербакова. – Челябинск : ЧИППКРО, 2017. 273-275

10. Игумнова Е.А., Радецкая И.В. Квест-технология в образовании. Учебное пособие для студентов высш. исред. учебных заведений. – Чита: Забайкал. гос. ун-т, 2016. – С. 170-177.

11. Игумнова, Е. А. Квест-технология в образовании // Учеб.Пособие. – Чита : ЗабГУ – 2016. – 164 с.

12. Андреева, М. В. Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции // Информационно-коммуникационные технологии в обучении иностранным языкам. Тезисы докладов I Международной научно-практической конференции. М., 2014. - С. 58 -62.

13. Мосткова Е. Ф. Роль квест-технологий в образовании и воспитании школьников // Дополнительное образование детей в изменяющемся мире: развитие востребованности, привлекательности, результативности Материалы III Международной научно-практической конференции Челябинск, 26–27 октября 2017 года. – Челябинск ЧИППКРО. 2017. –С. 273-275.

14. Игумнова, Е. А. Квест-технология в образовании // Учеб.Пособие. – Чита : ЗабГУ, 2016. – 164 с.

15. Игумнова, Е. А. Квест-технология в контексте требований ФГОС общего образования [Электронный ресурс] / Е. А. Игумнова, И. В. Радецкая // Современные проблемы науки и образования. 2016. –Режим доступа URL: <https://science-education.ru/pdf/2016/6/25517.pdf>



16. Сокол, И. Н. Классификация квестов [Электронный ресурс]. // Молодой ученый – № 6 (09) – 2014. – Режим доступа URL: <http://molodyvcheny.in.ua/files/journal/2014/6/89.pdf>.

17. Сокол М. Квест: метод чи технология? // Научно-методический журнал. 2014.- № 2(114).- С. 28-32.

18. Чмир Р.А., Федулова Ю.А., Николашин В.П., Использование квест-технологий в образовательной деятельности высших и средних образовательных учреждений // Технологии пищевой и перерабатывающей промышленности АПК-продукты здорового питания, – № 1. 2016. 75-79.

19. N.X. Avliyakov, N.N. Musaeva Pedagogik texnologiya // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent : ChoMponNMIU, 2012. 208 b.

20. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетентности (на примере студентов неязыкового ВУЗа) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2012. – 26 с.

21. Чистякова К. В. Причины популярности квестов как формы досуга современных россиян // Человек в мире культуры. – 2013. – № 2. – С. 20–22.

22. Новиков М.Ю. Методы обучения информатике на основе мобильных технологий // ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В РОССИИ. 2017. № 11. – С. 48-59

23. Багузина Е. И. Технология разработки веб-квестов при изучении студентами иностранного языка // Знание. Понимание. Умение. – 2010. – № 2. – С. 262–265.

24. Николаева Н. В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности учащихся // Вопросы Интернет-образования. 2002, № 7. - [http://vio.fio.ru/vio\\_07](http://vio.fio.ru/vio_07)

25. Василенко О.А. Квест-технологии в преподавании профессиональных дисциплин //

[http://fostu.ucoz.ru/publ/obespechenie\\_kachestva\\_professionalnogo\\_obrazovaniya/3\\_sovremennye\\_tekhnologii\\_v\\_sisteme\\_professionalnogo\\_obrazovaniya/kvest\\_tekhnologii\\_v\\_prepodavanii\\_professionalnykh\\_disciplin/58-1-0-547](http://fostu.ucoz.ru/publ/obespechenie_kachestva_professionalnogo_obrazovaniya/3_sovremennye_tekhnologii_v_sisteme_professionalnogo_obrazovaniya/kvest_tekhnologii_v_prepodavanii_professionalnykh_disciplin/58-1-0-547)

26. Игумнова, Е. А. Проектирование образовательного квеста на основе технологической карты (на примере урока биологии) / Е. А. Игумнова, И. В. Радецкая // Биология в школе. – 2016. – № 6.

27. Логвинова, И. М. Конструирование технологической карты урока в соответствии с требованиями ФГОС / И. М. Логвинова, Г. Л. Копотева // Управление начальной школой. – 2011. – № 12.

28. Мороз, Н. Я. Конструирование технологической карты урока: науч.-метод. пособие / Н. Я. Мороз. – Витебск: ВОГ ИПК и ПРР и СО, 2006.

29. Нарзиева Н. Н. умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2018. – 152 б.

#### **Elektron resurslar.**

1. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. [www. Uz.infocom.uz](http://www. Uz.infocom.uz)
3. [www. Eduportal.uz](http://www. Eduportal.uz)
4. [www. iSpring.ru](http://www. iSpring.ru)
5. [www. lex.uz](http://www. lex.uz)
6. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)

## MUDARIJA:

**KIRISH**..... 3-4

### **I. MAKTAB O‘QITUVCHILARINING DARSLARINI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI**

1.1. Darslarni loyihalash..... 5-7

1.2. «Kvest» texnologiyalarining imkoniyatlari ..... 7-12

1.3. Kvest texnologiyasining didaktik tamoyillari ..... 12-14

### **II. “KVEST” DIDAKTIK TA’LIM TEXNOLOGIYASI SIFATIDA**

2.1. Kvest texnologiyasi turlari ..... 15-20

2.2. Kvest darslarining texnologik xatirasini tuzish ..... 20-26

2.3. Kvest texnologiyasi asosida loyihalashtirilgan dars  
ishlanmalaridan namunalar ..... 27-44

**XULOSA** ..... 45-46

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI** ..... 47-50

**D.O‘.QARSHIYEVA**

**DARSLARNI “KVEST” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA  
LOYIHALASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI

**Muharrir:** Muhammad Sobir  
**Musahhih:** Osima Sobirjon qizi

**ISBN 978-9943-7904-1-4**

“Qamar media” nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani  
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 13.01.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 17.01.2022-yil.  
Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>, “Times New Roman” garniturası.  
Bosma tabog‘i 3,5. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2022/02  
Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

---

Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning  
malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi